
Imkoniyatdan unumli foydalanayotgan yosh tadbirkor.

Shahrimizdagi bir qator ishsiz yoshlarga ularning talab va istaklarini inobatga olgan holda mehnat qurollari topshirilgan edi. Berilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan yoshlarimiz albatta unumli foydalanmoqdalar.

Tadbirkorlik salohiyati bor yoshlarimiz yangi ish o'rinlarini ham yaratishga ulgurdi. Ularning imtiyozli kredit olib faoliyatlarini kengaytirish hamda bo'sh turgan bino yoki yer maydonini olish kabi maqsadlari ham yo'q emas. Bu borada albatta mahallalardagi yetayechilar tizimli ishlarni olib bormoqdalar.

"Jo'ydam" MFYda yashovchi Husanjon Mirzaahmedov ham belgilangan tartiblar asosida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan edi. Uning istagi bo'yicha alyumin eshik va romlarni yasash uchun hudud yetakchisi tavsiyasiga ko'ra subsidiya asosida zaruriy asbob-uskuna olib berildi.

2022-06-13 10:16:22